

## *2018 yil yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar*

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 15 321,1 mlrd. so`mni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.

### Raqamlar:

**Jalb etilgan mablag'lar – 10 687,1**

**Korxona va aholining o'z mablag'lari – 4634,0**

### **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning taqsimlanishi**

	Mlrd.so'm	O'sish sur'ati, foizda	Ulushi %
--	-----------	------------------------	----------

<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	15321,1	107,0	100
shu jumladan			
Markazlashgan investitsiyalar:	8191,2	136,0	53,5
Respublika byudjet mablag'lari	212,9	93,7	2,6
Davlat maqsadli jamg'armalari	455,5	121,0	5,6
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	687,3	14,0	8,4
O'zR kafolati ostida xorijiy investisiya va kreditlar	6835,5	13,7M	83,4
Markazlashmagan investitsiyalar:	7129,9	86,1	46,5
Korxonalarning o'z mablag'lari	3574,8	84,7	50,1

	Mlrd.so`m	O'sish sur'ati, foizda	Ulushi %
Aholi mablag'lari	1059,2	98,2	14,9
To`g'ridan-to`g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1503,7	69,2	21,1
Tijorat bank kreditlari	988,2	120,3	13,8
Boshqa qarz mablag'lari	4,0	293,3	0,1

Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar nisbatan ko`proq jalb etilgan mablag`lar hisobidan amalga oshirildi.

#### Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:

- Respublika byudjeti:  
**212,9 mlrd.so`m**
- Davlat maqsadli jamg`armalari:  
**410,1 mlrd.so`m**
- Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi:  
**45,4 mlrd.so`m**
- O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**6 835,5 mlrd. so`m**
- Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi:  
**687,3 mlrd.so`m**


#### Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:

- Aholi mablag`i :  
**1 059,2 mlrd.so`m**
- Korhona mablag`i:  
**3 574,8 mlrd.so`m**
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari:  
**992,2 mlrd.so`m**
- To`g'ridan-to`g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**1 503,7 mlrd.so`m**

## **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 44,6 %i O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan moliyalash-tirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 6,5 %, to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 9,8 %, aholi mablag`lari 6,9 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 4,5 %, Respublika byudjeti 1,4 % va Davlat maqsadli jamg`armalari 2,7 % va korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan 23,3 % va Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 0,3 % asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.


### **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)**



## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi quyidagicha ifodalangan:

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Investitsiyalar hajmi mlrd.so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, foizda</b>	<b>Ulushi %</b>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>15 321,1</b>	<b>107</b>	<b>100</b>
Qarshi sh	1776,8	64,2	11,6
Shahrisabz sh <i>tumanlar</i>	141,1	216,6	0,9
G'uzor	1398,5	97,4	9,1
Dehqonobod	623,1	36,1	4,1
Qamashi	93,0	118,8	0,6
Qarshi	312,9	51,9	2,0
Koson	393,9	92,0	2,6
Kitob	250,6	151,8	1,6
Mirishkor	98,2	132,1	0,6
Muborak	1939,3	119,8	12,7
Nishon	7576,9	158,5	49,5
Kasbi	101,2	118,1	0,7
Chiroqchi	206,9	134,2	1,3
Shahrisabz	147,3	105,0	1,0
Yakkabog'	261,4	129,8	1,7


## Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari



Tumanlar kesimida Nishon tumani va Muborak tumanlari yetakchilik qilayotgan bo`lsada, Kitob va Chiroqchi tumanidagi investitsion faoliik natijasida yuqori o'sish suratlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

2018 yil yanvar – dekabr oylarida Investitsiya dasturi doirasida "Qashqadaryo Suv Qurilish Invest" unitar korxonasi tomonidan quvvati 9,03 km bo`lgan Shahrisabz shahri hududidan o'tuvchi "Sel yo'llari tarmog'i"ning qurilishi foydalanishga topshirildi. Shuningdek Kitob tumanida ham quvvati 0,5 km bo`lgan, Anhor -2 kanalining bosh qismida suv chiqarish inshoatini qurish va dambaga tushuvchi sel oqimidan himoyalash inshoati qurildi. Kitob tumanida "Qarshi conch cement" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan yirik investitsiya loyihasi – Cement ishlab chiqaradigan zavod qurilmoqda." Muborakneftgaz" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan "gazdan oltingugurni ajratib olish" qurilmasi o'rnatilmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (viloyatdagি ulushi)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`zlashtirilgan hajmi bo`yicha shahar va tumanlar kesimida Nishon va Muborak tumanlari yetakchilik qilmoqda. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning Nishon tumanida 49,5 %i, Muborak tumanida esa 12,7% o`zlashtirildi.


Qarshi shahrida investitsiyalarning viloyatdagи ulushi 11,5 %ni tashkil qilgan bo`lsa, Qamashi tumanida bu ko`rsatkich bo`yicha eng kami bo`ldi – 0,6 %.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagicha ifodalangan:**

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd.so'm</b>	<b>15321,1</b>	<b>705,0</b>	<b>14616,1</b>
<b>Qurilish- montaj ishlari</b>	<b>5327,8</b>	<b>590,5</b>	<b>4737,3</b>
<b>Mashina,uskunalar,transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari</b>	<b>6434,1</b>	<b>61,6</b>	<b>6372,5</b>
<b>Boshqa xarajatlar</b>	<b>3559,2</b>	<b>52,9</b>	<b>3506,3</b>



Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi 2017 yil yanvar–dekabrga nisbatan qurilish–montaj ishlarining ulushi 23,0 foizli punktga kamaygan bo`lsa, Mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jihozlari ulushi 26,1 foizli punktga ko`paygan va boshqa xarajatlarning ulushi 12,9 foizli punktga ko`paygan.




Asosiy kapitalga investitsiyalar texnologik tarkibining tuzilishi bo`yicha Qarshi shahri va Nishon tumanlarining ulushi yetakchilik qilmoqda. Kitob hamda Mirishkor tumanlarda esa investitsiyalar texnologik tarkibi bo`yicha viloyatda oxirgi o`rinlarda bormoqda.


## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiaarish tarkibi

Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan bo`lib, yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 10 987,1 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 71,7 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 1 173,4 mlrd.so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 7,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 20,6 %, yani 3 160,6 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar-ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida elektr energiyasi, gaz, bug' va kondisiyalangan havo yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7696,7 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 50,2 % o`zlashtirilgan. 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan tog'-kon sanoati ishlarining ulushi 1,6 foizli punktga kamaygan bo`lsa, qurilish tarmog'ining ulushi esa 1,5 foizli punktga ko'paygan shuningdek, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash faoliyat turining ulushi 0,8 foizli punktga ko'paygan.

## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


Joriy davrda 8 339,2 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 54,4 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.



Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 503,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 6 835,5 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 606,3 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami xorijiy investitsiyalarning 40,3 %ni tashkil qildi.

## ***Obyektlarni ishga tushirish***



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiyl maydoni 1 137,2 ming kv.m, bo`lgan 7 234 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiyl maydoni 696,3 ming kv.m. bo`lgan 4 764 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiyl maydoni 188,4 ming kv.m. 2264 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Chiroqchi tumanida ishga tushirilgan 150,5 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiyl maydonning 13,2 %ini tashkil etdi.

Eng kam turar joy Nishon tumanida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 1,5 %ni tshkil etdi.